U.U.UMAROVA

DISKRET MATEMATIKA VA MATEMATIK MANTIQ FANIDAN MISOL VA MASALALAR TO'PLAMI

O`quv qo`llanma Oliy ta`lim muassasalarining 5130100-Matematika, 5130200-Amaliy matematika va informatika ta`lim yo`nalishlari talabalari uchun tayyorlangan

Umida, Umarova

Diskret matematika va matematik mantiq fanidan misol va masalalar to’plami: o’quv qo’llanma\ U. Umarova. 191 b.

ANNOTATSIYA

Mazkur o’quv qo’llanma o'n to’rt paragrafdan iborat bo'lib, ular to’rtta bobda guruhlangan: I. To’plamlar nazariyasi; II. Mulohazalar algebrasi; III. Bul funktsiyalari; IV. Mulohazalar hisobi. Har bir paragrafda misol va masalalarni yechish uchun ishlatiladigan tushunchalar tizimini ta'minlovchi nazariy xususiyatga ega qisqacha ma'lumot berilib, so’ng muammoli masala va topshiriqlar beriladi.

O`quv qo`llanma Oliy ta`lim muassasalarining 5130100-Matematika, 5130200-Amaliy matematika va informatika ta`lim yo`nalishlari fan dasturidagi mavzulari asosida tuzilgan. Misol va masalalar to'plami ta'lim muassasalarida diskret matematika va matematik mantiq asoslarini o'rganishni boshlagan har bir kishi uchun foydali bo'ladi.

АННОТАЦИЯ

Это Учебное пособие сборник задач предназначен для оказания практической поддержки теоретическим курсам по дискретной математике и математической логике. Сборник состоит из четырнадцати параграфов, которые сгруппированы в четыре главы: I. Множество; II. Алгебра высказываний; III. Булевые функции; IV. Формализованное исчисление высказываний. Каждый абзац содержит краткий обзор теоретической части, которые обеспечивают систему понятий, используемых для решения примеров и задач, за которыми следуют задачи для решения.

Учебное пособие предназначено для студентов бакалавриата направления 5130100-Математика, 5130200-Прикладная математика и информатика предусмотренная учебная программой.

Сборник задач и упражнений будет полезен всем, кто приступает к изучению основ дискретной математики и математической логики в учебных заведениях.

ANNOTATION

The collection consists of fourteen sections, which are grouped into four chapters: I. Sets; II. Propositional Algebra; III. Boolean functions IV. Propositional calculus. Each section contains a brief overview of the theoretical part, which provides a system of concepts used to solve examples and problems, followed by tasks to be solved.

The manual is intended for undergraduate students of the disciplines of 5130100-Mathematics, 5130200-Applied mathematics and informatics, and is designed according to the topics given in the curriculum. The collection of problems and exercises will be useful to everyone who begins to study the basics of discrete mathematics and mathematical logic in educational institutions.

TAQRIZCHILAR:

Buxoro muhandislik texnologiya institute professori, f-m.f.d., **M.X. Teshayev**

Buxoro davlat universiteti dotsenti, f-m.f.n., **H.R. Rasulov**

SO‘Z BOSHI

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimini tubdan islohot qilishga katta ahamiyat berildi. 1997-yil 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi va unda ta’lim tizimini zamonaviy talablarga mos keltirish uchun bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar hamda ularni bosqichma–bosqich amalga oshirish belgilab berildi. Milliy dasturdagi eng asosiy vazifalaridan biri –yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir. Bu vazifani amalga oshirishda o‘quv-tarbiya jarayoni uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish, uni yuqori sifatli o‘quv-uslubiy majmualar bilan ta’minlash muhim ahamiyatga ega ekanligi dasturda ta’kidlab o‘tilgan.

Yuqori malakali, raqobatbardosh, zamonaviy talablarga javob bera oladigan kadrlar tayyorlashda ularga chuqur matematik bilimlar berish va bu bilimlarni masalalar yechishga tatbiq eta olishga o‘rgatish katta ahamiyatga ega.

Misol va masalalar ishlamasdan matematikani o'rganishni tasavvur qilib bo'lmaydi. O'qitish jarayonida misol va masalalar turli funksiyalarni bajaradi - o'qitish, rivojlantirish, ta'lim berish. Biz misol va masalalar matematikani o'qitishning eng muhim vositasi deb bilamiz. Ular yordamida matematikani o'qitishda turli didaktik maqsadlar qo'yilishi mumkin: nazariy savollarni o'rganishga tayyorgarlik, olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ko'nikmalarini shakllantirish, ilgari o'rganilgan materialni takrorlash, uni boshqa fanlarda va amaliyotda qo'llash, bilimlarning assimilyatsiyasini kuzatish.

Misol va masalalar yordamida o'z maqsadlariga erishishga o'rgatish uchun mashqlar va topshiriqlarning puxta o'ylangan tizimi kerak. Bunday tizimda vazifalar ketma-ketligi o'quvchilarning xususiyatlari va qobiliyatlari "oddiydan murakkabga" tamoyilini hisobga olgan holda to'g'ri tashkil etilishi kerak.

Misol va masalalar to'plami o'quv qo'llanmasida o'rganilayotgan diskret matematika va matematik mantiq fani bo'yicha nazariy mavzularni amaliy qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan. To'plam o'n to’rt paragrafdan iborat bo'lib, ular to’rtta bobda guruhlangan: I. To’plamlar nazariyasi; II. Mulohazalar algebrasi; III. Bul funksiyalari; IV. Mulohazalar hisobi. Har bir paragrafda misol va masalalarni yechish uchun ishlatiladigan tushunchalar tizimini ta'minlovchi nazariy xususiyatga ega qisqacha ma'lumot berilib, so’ng muammoli masala va topshiriqlar beriladi.

O`quv qo`llanma Oliy ta`lim muassasalarining 5130100-Matematika, 5130200-Amaliy matematika va informatika ta`lim yo`nalishlari fan dasturidagi mavzulari asosida tuzilgan.

Misol va masalalar to'plami ta'lim muassasalarida diskret matematika va matematik mantiq asoslarini o'rganishni boshlagan har bir kishi uchun foydali bo'ladi.

1-BOB. TO'PLAMLAR NAZARIYASI

1.1-To'plamlar va ular ustida amallar.

$A=\{a,b,c,d,...\}$ - A to'plam $a,b,c,d...$ elementlardan tuzilgan.

$a\in A$ yoki $A\ni a$ - a narsa A to'plamning ***elementi***

$b\overline{\in}A$ yoki $A\overline{\ni}b$ - b narsa A to'plamning ***elementi emas***

$B\subseteq A$ yoki $A\supseteq B$ - B A ning ***qism to'plami***

$B\subset A$ yoki $A\supset B$ - B A ning ***xos qism*** to'plami.

$\varnothing$ -bo'sh to'plam har qanday A to'plamning qism to'plami bo'ladi va u ham A ning ***xosmas qismi***

$A\cup B = \{x \mid x \in A$ yoki $x \in B\}$ - A va B to'plamlarning ***yig'indisi yoki birlashmasi***

$\bigcup_{\alpha=1}^{n} A_\alpha = A_1 \cup A_2 \cup A_3 \cup ... \cup A_n$ - $A_1, A_2, A_3,..., A_n$ to'plamlarning ***yig'indisi yoki birlashmasi***

$A \cap B = A\ B = \{x \mid x \in A\ va\ x \in B\}$ - A, B to'plamlarning ***ko'paytmasi (kesishmasi yoki umumiy qismi)***

$\bigcap_{\alpha=1}^{n} A_\alpha = A_1 \cap A_2 \cap A_3 \cap ... \cap A_n$ - $A_1, A_2, A_3,..., A_n$ to'plamlarning ***ko'paytmasi (kesishmasi yoki umumiy qismi)***

$A-B$ yoki $A\setminus B$, $A - B = \{x \mid x \in A$ va $x \notin B\}$ - A va B ***to'plamlarning ayirmasi***

$\overline{B}$ yoki B' - B ni A to'plamigacha ***to'ldiruvchisi***

$\cup$ - universal to'plam.

$2^A = \{X \mid X \subseteq A\}$ —A to'plamning ***barcha qism to'plamlaridan tuzilgan to'plam***

$A \vartriangle B$ yoki $A \otimes B = (A - B) \cup (B - A)$ – A va B to'plamlarning ***simmetrik ayirmasi***.

$n(A)$ - A to'plamning ***elementlari soni***

Agar $A \subseteq B$ va $B \subseteq A$ bo'lsa, u vaqtda $A = B$.

Misol: $A = \{1,2,3,4,5\}$, $B = \{3,4,5,6,7\}$ $A \cup B = \{1,2,3,4,5,6,7\}$

Asosiy tengkuchliliklar.

1. $\overline{\overline{A}} = A$
2. $A \cap B = B \cap A$ - ko'paytmaga nisbatan kommutativlik qonuni.
3. $(A \cap B) \cap C = A \cap (B \cap C)$ - ko'paytmaga nisbatan assostiativlik qonuni.
4. $A \cup B = B \cup A$ - yig'indiga nisbatan kommutativlik qonuni.
5. $(A \cup B) \cup C = A \cup (B \cup C)$ -yig'indiga nisbatan assostiativlik qonuni.
6. $A \cap (B \cup C) = (A \cap B) \cup (A \cap C)$ - ko'paytmaga nisbatan distributivlik qonuni.
7. $A \cup (B \cap C) = (A \cup B) \cap (A \cup C)$ - yig'indiga nisbatan distributivlik qonuni.
8. $\overline{A \cap B} = \overline{A} \cup \overline{B}$. 9. $\overline{A \cup B} = \overline{A} \cap \overline{B}$. - de-Morgan qonuni
10. $A \cap A = A$. 11. $A \cup A = A$.
12. $A \cap U = A$. 13. $A \cup U = U$.
14. $\overline{A \cup A} = \overline{A}$. 15. $A \cup \varnothing = A$. 16. $A \cap \varnothing = \varnothing$.
17. $B \cup \overline{B} = U$. 18. $\overline{B} \cap B = \varnothing$ 19. $B \cup \overline{B} = A$.
20. $B - \overline{B} = B$, 21. $\overline{B} - B = \overline{B}$.
22. $A \cap (A \cup B) = A$ 23. $A \cup (A \cap B) = A$ yutish qonuni

Kesishma amali birlashma amaliga nisbatan mustahkamroq bog'laydi, shuning uchun qavslar qo'yilmagan taqdirda birinchi bajariladi.

Misol: $A \cup (A \cap B) = A \cup A \cap B$.

$(A \cap B) \cup C = A \cap B \cup C$

Muammoli masala va topshiriqlar:

1.1.1. Quyidagilardan qaysi to'g'ri:

1) $b \subset \{a, b\}$;
2) $b \in \{a,b\}$;
3) $\{b\} \subset \{a, b\}$;
4) $\{b\} \in \{a, b\}$;
5) $b \subset \{a,\{b\}\}$;
6) $b \in \{a,\{b\}\}$;
7) $\{b\} \subset \{a,\{b\}\}$;
8) $\{b\} \in \{a,\{b\}\}$;
9) $\varnothing \in \{\varnothing\}$;
10) $\varnothing \subseteq \{\varnothing\}$;
11) $\varnothing \in \varnothing$;
12) $\varnothing \subseteq \varnothing$?

1.1.2. Har bir to'plamning elementlar soni nechta:

1) $\{1, 2,3,\{1, 2,3\}\}$;
2) $\{1,\{1\},2,\{1,\{2,3\}\}, \varnothing\}$;
3) $\varnothing$;
4) $\{\varnothing\}$;
5) $\{\varnothing,\{\varnothing\}\}$;
6) $\{\{\varnothing,\{\varnothing\}\}\}$?

1.1.3. Agar $A \subseteq B$ va $a \in A$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi to'g'ri:

1) $a \notin B$;
2) $a \in B$;
3) $A \in B$;
4) $a \in A \cup B$;
5) $a \in A \cap B$;
6) $a \in A - B$;
7) $a \in A \otimes B$;
8) $a \subseteq A$;
9) $\{a\} \subseteq A$;
10) $\{a\} \subseteq B$?

1.1.4. Agar $B \subseteq A \subseteq C$, $a \in A$ va $a \notin B$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi to'g'ri:

1) $a \notin C$;
2) $a \in C$;
3) $a \in A \cap B$;
4) $a \in A \cup B$;
5) $a \in A - B$;
6) $a \in B - A$;
7) $a \in A \otimes B$;
8) $\{a\} \subseteq A \cap C$;
9) $a \in A \cup C$;
10) $\{a\} \subseteq A - C$;
11) $\{a\} \subseteq A \otimes C$;
12) $a \in (A \cap B) \cup C$;
13) $\{a\} \subseteq A \cap (B \cup C)$;
14) $\{a\} \subseteq B \cup (C - A)$;
15) $\{a\} \subseteq A \cap (B - C)$;
16) $\{a\} \subseteq B \otimes (A - C)$?

1.1.5. Universal to'plam $U=\{1,2,3,4,5,6,7,8\}$ va uning qism to'plamlari $A=\{x \mid 2<x\leq 6\}$, $B=\{x \mid x$ –juft $\}$, $C=\{x \mid x\geq 4\}$, $D=\{1,2,4\}$ bo'lsa, $A\cap B$, $A\cup B$, CD, $B\otimes C$, $\overline{A}$, $\overline{BD}$, $\overline{\overline{A}\cup\overline{B}\cup\overline{C}}$, $(A-B)\cup(C-D)$, $2^A\cap 2^B$, 2^D-2^B ni toping.

1.1.6. Universal to'plam $U=\{1,2,3,4,5,6,7,8\}$ va uning qism to'plamlari

$A=\{x \mid x$ – juft$\}$, $B=\{x \mid x$ –to'rtga karrali $\}$, $C=\{x \mid x$ – tub$\}$, $D=\{1,3,5\}$ bo'lsa, $A\cup B$, CD, $A\otimes B$, $A\cap(B\cup C\cup D)$, $C\otimes D$, $(A-B)\cup(C-D)$ $\overline{A}$, $\overline{BD}$, $\overline{\overline{A}\cup\overline{C}}$, $2^A\cap 2^B$ ni toping.

1.1.7. M_2, M_3, M_5 to'plamlar mos ravishda 2,3,5 ga bo'linuvchi sonlardan tuzilgan va universal N natural sonlar to'plamning qism to'plamlari bo'lsin. Shu to'plamlar yordamida quyidagi shartni bajaruvchi barcha sonlar to'plamini tuzing:

1) 6 ga bo'linuvchi;
2) 30 ga bo'linuvchi;
3) 30 bilan o'zaro tub;
4) 10 ga bo'linuvchi ammo 3 ga bo'linmaydigan;

To'plamlar nazariyasi simvollaridan foydalanib, quyidagilarni yozing:

1) 45 soni 15 ga bo'linadi;
2) 42 soni 6 ga bolinadi ammo 10 ga bo'linmaydi;
3) {8, 9, 10} to'plamdagi har bir son 2, 3, 5 sonlarning hech bo'lmaganda birtasiga bo'linadi ammo 6 ga bo'linmaydi.

1.1.8. $-$, $\otimes$ amallari uchun kommutativlik va assosiativlik xossalari bajarilishini tekshiring.

1.1.9. Ixtiyoriy A,B,C to'plamlar uchun quyidagi distributivlik xossalaridan qaysi bajarilishini aniqlang:

1) $A-(B\cup C)=(A-B)\cup(A-C)$;
2) $A-(B\cap C)=(A-B)\cap(A-C)$;
3) $A\otimes(B\cup C)=(A\otimes B)\cup(A\otimes C)$;

4) $A\otimes BC=(A\otimes B)(A\otimes C)$;

5) $A-(B\otimes C)=(A-B)\otimes(A-C)$;

6) $A\cup BC=(A\cup B)(A\cup C)$;

7) $A\cup(B-C)=(A\cup B)-(A\cup C)$;

8) $A(B-C)=AB-AC$;

9) $A\cup(B\otimes C)=(A\cup B)\otimes(A\cup C)$;

10) $A(B\otimes C)=AB\otimes AC$;

11) $A\otimes(B-C)=(A\otimes B)-(A\otimes C)$.

12) $A\cup(B\cap C)=(A\cup B)\cap(A\cup C)$;

13) $A\cap(B\setminus C)=(A\cap B)\setminus(A\cap C)$;

14) $A\setminus(B\setminus C)=(A\setminus B)\cup(A\cap C)$;

15) $A\triangle(B\triangle C)=(A\triangle B)\triangle C$;

16) $A\cap(B\triangle C)=(A\cap B)\triangle(A\cap C)$;

17) $(A\cap B)\cup(C\cap D)=(A\cup C)\cap(B\cup C)\cap(A\cup D)\cap(B\cup D)$.

1.1.10. Isbotlang:

1) $A\cup AB=A$;

2) $A(A\cup B)=A$;

3) $A\cup\overline{A}\cap B=A\cup B$

4) $A(\overline{A}\cup B)=AB$

5) $A-(A-B)=AB$;

6) $A\text{-}AB=A\text{-}B$

13) $A(B-A)=\varnothing$;

14) $A\cup(B-A)=A\cup B$;

17) $A-(B\cup C)=(A-B)(A-C)$;

18) $A\otimes\overline{B}=\overline{A}\otimes B=AB\cup(\overline{A\cup B})$

7) $A\otimes B=A\cap\overline{B}\cup\overline{A}\cap B$

8) $A\otimes(A\otimes B)=B$;

9) $A-B=A\otimes AB$;

10) $A\cup B=(A\otimes B)\cup AB$;

11) $\overline{A\otimes B}=\overline{A}\otimes B=A\otimes B\otimes U$

12) $\overline{A\otimes B}=AB\cup(\overline{A}\overline{B})$

15) $A\cup\overline{A}B=A\otimes\overline{A}B=B\otimes A\overline{B}$

16) $AB\cup A\overline{B}=A$

19) $(A- B)-C = (A-C)-(B-C) = A-(B\cup C)$;

20) $A-(B-C) = (A-B)\cup AC = (A-B)\cup(\overline{A}-C)$;

21) $(A\cup B)-C = (A-C)\cup(B-C)$;

22) $A\cup B\cup C = (A- B)\cup(B-C)\cup(C - A)\cup ABC$;

23) $A- BC = (A- B)\cup(A-C) = ABC \otimes A$;

24) $A(B-C) = AB-C = ABC\otimes AB$;

25) $(AB \otimes A)\otimes(BC \otimes C) = (AB \otimes BC)\otimes(A\otimes C)$;

26) $(A\cup B)\otimes(B\cup C) = (A\otimes C) - B = (AB \otimes BC)\otimes(A\otimes C)$.

1.1.11. Ifodalang:

1) $\cup$ ni $\otimes$, $\cap$ amallar orqali;

2) $\cap$ ni $\otimes$, $\cup$ amallar orqali;

3) $\cup$ va $\cap$ ni $\otimes$,– amallar orqaliю

1.1.12. Tenglamani yeching:

1) $AX = B$;

2) $A\cup X = B$;

3) $A\otimes X = B$;

4) $A-X = B$;

5) $A\cup X = BX$;

6) $A\otimes X = BX$;

7) $A-X = X-B$;

8) $(A\cup X)\cup B = X \cup B$;

9) $AX = (X \cup B)- A$;

10) $\overline{X A} = (X - B)\cup A$;

11) $(A\cup X)\overline{B} = X - B$;

12) $(A-X)\cup B = B\otimes X$;

13) $(X-A)\cup B = \overline{AX}$;

14) $(X\otimes A)-B = BX$;

15) $AX\otimes B = B-\overline{X}$;

16) $A-X = BX-A$;

17) $A\cap \overline{X\ B} = (X - A)B$;

18) $\overline{A\cup X} = \overline{B\ X}$;

19) $X - A = B\cup(X - A)$;

20) $(A\cup X)-B = B-X A$;

21) $X A = B(X \cup A)$;

22) $(A\otimes X)X = X - B$;

23) $AX \cup \overline{A} = (X - B)B$;

24) $(A\cup X)B = \overline{A}\cup BX$;

25) $A\otimes(X\cup B) = BX$;

26) $BX = (A-X)X$;

27) $AX\otimes B = X-A$;

28) $(X \cup B)-A = A\cup X$;

29) $AX\cup B = A-X$;

30) $X \cup A = (B-X)\otimes A$.

1.1.13. Agar $A \subseteq B$ bo'lsa, $AB = \varnothing$ ekanligini isbotlang.

1.1.14. Agar $A = B$ bo'lsa, $A \otimes \overline{B} = \varnothing$ ekanligini isbotlang.

1.1.15. $U = \{0,1,2,3,4,5,6,7,8,9\}, A = \{1,2,3\}, B = \{0,1,2,5,8\}, C = \{0,2,5,8\},$

$D = \{3,6,8,9\}$ bo'lsa, quyidagi to'plamlarni toping:

1) $\overline{A \cup B} \cap (C \setminus D)$

2) $\overline{A / B} \cap (C \cup D)$

3) $\overline{A \cap B} \cap (C \setminus \overline{D})$

4) $(A \cup \overline{B \cup C}) \cap D$

5) $(A \otimes B) \cup \overline{C \cap D}$

6) $(A \cup B \cup C) \cap D$

7) $(B \cap C) \cup (A \cap D)$

8) $\overline{(\overline{A \cup B} \cup C) \cap D}$

1.1.16. $U = \{-1,-2,-3,-4,-5,5,4,3,2,1\}, A = \{1,2,3\}, B = \{-1,-2,-5,3\}, C = \{-3,-4,1,2,3\},$

$D = \{-2,1,4,5\}$ bo'lsa, quyidagi to'plamlarni toping:

1) $\overline{A \cup B} \cap (C \setminus D)$

2) $\overline{A / B} \cap (C \cup D)$

3) $\overline{A \cap B} \cap (C \setminus \overline{D})$

4) $(A \cup \overline{B \cup C}) \cap D$

5) $(A \otimes B) \cup \overline{C \cap D}$

6) $(A \cup B \cup C) \cap D$

7) $(B \cap C) \cup (A \cap D)$

8) $\overline{(\overline{A \cup B} \cup C) \cap D}$

1.1.17. Sistemani soddalashtiring:

1) $\begin{cases} A \subseteq BC \cup \overline{B}; \\ ABC \subseteq D; \\ AD \subseteq \overline{BC}. \end{cases}$

2) $\begin{cases} \overline{A} = B\overline{C}; \\ \overline{C} \subseteq D; \\ AD = \overline{B}CD; \\ B = CD. \end{cases}$

3) $\begin{cases} C \subseteq A \cup B; \\ A \cup D \subseteq B \cup C; \\ \overline{B} \subseteq D \subseteq \overline{C}; \\ BC \subseteq \overline{D}. \end{cases}$

1.1.18. Quyidagi sistemalar tengkuchlimi?

1) $\begin{cases} X \subseteq Z \subseteq \overline{W}, \\ Y \subseteq W, \\ X \cup Y \subseteq Z \cup W. \end{cases}$ va $\begin{cases} X = Z \\ Y = W. \end{cases}$

2) $\begin{cases} C\otimes D\subseteq A, \\ B\cup D\subseteq A\cup C, \\ A-D\subseteq C-B. \end{cases}$ va $\begin{cases} \overline{A}\subseteq CD, \\ B-C\subseteq \overline{A}, \\ A\subseteq C\cup D. \end{cases}$

3) $\begin{cases} A\subseteq C\otimes B, \\ C\subseteq B\otimes D, \\ AC\subseteq B-D. \end{cases}$ va $\begin{cases} B\subseteq \overline{CD}, \\ C-D\subseteq B, \\ AC\subseteq D, \\ A-B\subseteq BC. \end{cases}$

1.1.19. Berilgan tenglamalar sistemasidagi X to'plamni toping. Bu yerda A, B, C to'plamlar $B\subseteq A\subseteq C$ shartni qanoatlantiradi.

1) $\begin{cases} A-X=B \\ A\cup X=C. \end{cases}$ 2) $\begin{cases} AX=B \\ A\cup X=C. \end{cases}$

1.1.20. Tenglamalar sistemasini yeching.

1) $\begin{cases} (A\cup X)(B\cup X)=C\cup X \\ BX\cup C=\overline{AX}. \end{cases}$; 2) $\begin{cases} A-X=\overline{B} \\ A\cup X=\overline{C}. \end{cases}$

3) $\begin{cases} A\otimes B\otimes X=X\otimes C \\ AX\otimes B=AX\otimes C. \end{cases}$; 4) $\begin{cases} AX=C\cup X \\ A\cup X=BX. \end{cases}$

5) $\begin{cases} AX\cup B\overline{X}=C \\ BX\cup A\overline{X}=C. \end{cases}$; 6) $\begin{cases} AX=B \\ B\overline{X}=C \\ CX=A\cup B. \end{cases}$

1.1.21. Quyidagilardan qaysi to'g'ri va qaysi noto'g'ri? Javobingizni asoslang:

1) $\pi\in R$ 5) Ø∈ {Ø};

2) $cos\dfrac{\pi}{3}\in Q$ 6) $a\in\{\{a, b\}\}$;

3) 0,1010010001...∈ Q ; 7) $\{a, b\}\in\{\{a, b\}\}$;

4) Ø∈ Ø; 8) $\{a, b\}\in\{\{a, b\};\{a, c\}; a; b\}$.

1.1.22. Quyidagi to'plamlar tengmi:

1) {1, 3, 5} va {1, 3, 5, 1}; 4) $\{a, b, c\}$va $\{\{a\}, \{b\}, \{c\}\}$

2) {11, 13} va{{11, 13}}; 5) $\{\{a, b\}, c\}$ va $\{a, \{b, c\}\}$

3) $\{a, b, c\}$ va$\{a, b, a, c\}$; 6) $\{x \in R\ 22 \le x \le 3\}$ va Ø.

1.1.23. $\in$ yoki $\subseteq$ belgilardan qaysi qo'yilganda to'g'ri tasdiq hosil bo'ladi?

1) {1} va{1,{1, 2}};
2) {1, 2}va {1, 2, {1}, {2}};
3) {1, 2}va {1, 2, {1, 2}};
4) Ø va {1, 2, {1}, {Ø}};
5) Ø va {Ø};
6) Ø va {{Ø}};
7) {1, 2}va {1, 2}.

1.1.24. To'plamlarning asosiy xossalaridan foydalanib, quyidagilarni soddalashtiring:

1) $(A \cap \overline{B} \cap \overline{C}) \cup (\overline{A} \cap \overline{B} \cap \overline{C}) \cup B \cup C;$

2) $\overline{(A \cup B) \cap (\overline{A} \cup B) \cap (A \cup \overline{B})};$

3) $\overline{A} \cup (\overline{A \cup \overline{B} \cap \overline{C}}) \cup (B \cap (\overline{A \cup C}));$

4) $A \otimes A \otimes A$

5) $(A \cap B \cap C \cap \overline{D}) \cup (\overline{A} \cap C) \cup (\overline{B} \cap C) \cup (C \cap D)$

6) $(\overline{A} \cup B \cup \overline{C}) \cap (A \cap \overline{B} \cap C) \cap (\overline{A \cup C})$

1.1.25. Isboblang:

1) $(A \setminus B) \setminus C \subseteq (A \cup C) \setminus B$;

2) $A \triangle B = A \setminus B$, agar $B \subseteq A$;

3) $A \cap B \subseteq C$, agar$A \subseteq (\overline{B} \cup C)$;

4) $A = \overline{B}$, agar $A \cap B = \varnothing$ va $A \cup B = U$.

1.1.26. Sinfda 32 o'quvchi bor. Ulardan 18 nafari kimyo to'garagiga, 12 tasi biologiya to'garagiga, 8 talaba ushbu to'garaklarning hech biriga qatnashmaydi. Qancha talabalar kimyo va biologiya to'garaklarga qatnashadilar? Qancha talabalar faqat kimyo to'garagiga qatnashadilar?

1.1.27. Guruhda 30 talaba bor, ulardan 18 nafari suzishga, 17 nafari voleybolga qiziqadi. a) Ikkala sport turiga qiziqqan talabalar soni qancha bo'lishi mumkin?

b) Kamida bitta sport turiga qiziqqan o'quvchilar soni qancha bo'lishi mumkin?

1.1.28. Doskadagi tasodifiy yozilgan raqamlar orasida 65% -2, 70% - 3 ga, 75% ga - 5 ga bo'linadi, 30 ga bo'inadigan raqamlarning eng kichik foizi qancha?

1.1.29. PMIda o'qiyotgan barcha birinchi kurs talabalari uchta dasturlash tilini o'rganishadi. Bu yil 19 talaba Paskalni, 14 kishi Basicni, 17 kishi Delphini o'rganishga qaror qilishdi. Bundan tashqari, 4 talaba Paskal va Basic dasturlarida uchtasi Paskal va Delphi, uchtasi Delphi va Basic tillarini o'rganishadi. Ma'lumki, talabalarning hech biri birdaniga uchta kursga borishga rozi bo'lmagan. PMIda nechta talaba bor? Ularning qanchasi faqat Delphini o’rganadi?

1.1.30. Statistik mutaxassislar Golden Beach Sayohat agentligiga tashrif buyurgan 100 kishi bilan so'rov o'tkazdilar. Ma'lum bo'lishicha, so'nggi 5 yil ichida 50 kishi Turkiyada ta'tilga chiqqan, shulardan 20 kishi Gretsiyada, 18 kishi Misrda va besh kishi ushbu uchala mamlakatda uch yil bo'lgan. Respondentlardan 50 kishi Gretsiyaning diqqatga sazovor joylari bilan tanishishdi, shundan 26 kishi faqat ikki davlatga tashrif buyurishdi. Piramidalar mamlakatiga necha kishi tashrif buyurdi?

1.1.31. 40 talabadan o'tkazilgan imtihonlar natijalariga ko'ra 11 talaba matematikadan, 15 ta fizikadan, 13 ta kimyo fanidan, 4 ta matematika va fizikadan, 3 ta matematika va kimyodan, 3 ta fizika va kimyo fanlaridan a'lo baholarga ega bo'lishdi. uchala fandan – 1ta. Qancha talabalar kamida bitta a'lo bahoga ega bo'lishdi?

1.1.32. May oyida 12 yomg'irli, 8 shamolli, 4 sovuq, 5 yomg'irli va shamolli, 3 yomg'irli va sovuq, 2 shamolli va sovuq kunlar bo'lgan va bir kun yomg'irli, shamolli va sovuq bo'lgan. May oyida shamol va yomg'irsiz necha kun issiq edi?

1.1.33. Yozda Anapada dam olayotgan Kostromaning 100 aholisining har biri ekskursiyalarda, delfinariumda yoki akvaparkda edi. Ulardan 67 kishi akvaparkga tashrif buyurishdi, ekskursiyalar - 82, delfinarium - 67, ekskursiyalar va delfinarium - 53, ekskursiyalar va akvapark - 58, delfinarium va akvapark - 51. Uchala tadbirda nechta Kostromaliklar bo'lgan?

1.1.34. Guruh sardori jismoniy tarbiya bo'yicha quyidagi hisobotni taqdim etdi. Hammasi - 45 talaba. Futbol sektsiyasida - 25 kishi, basketbol sektsiyasida - 30, shaxmat sektsiyasida - 28, futbol va basketbolda - 16, futbol va shaxmatda- 18, basketbol va shaxmatda - 17. Uch sektsiyada bir vaqtning o'zida 15 kishi shug'ullanadi. Hisobot nima uchun qabul qilinmaganligini tushuntiring?

1.1.35. Odamlarning qo'rquvga qarshi kurashish klubida 100 kishi, o'rgimchaklardan 60, 54 kishi ilonlardan, 55 sichqonlardan, 38 o'rgimchak va ilonlardan, 34 ilonlar va sichqonlardan, 40 kishi o'rgimchak va sichqonlardan, 20 kishi yopiq joylardan qo'rqishadi. a) Qancha odamlar o'rgimchaklardan yoki sichqonlardan qo'rqishadi, lekin ilonlardan qo'rqmaydilar? b) Qancha odamlar faqat bittasidan qo'rqishadi? c) Qancha odamlar uchtasidan, ikkitasidan qo'rqishadi? d) Qancha odamlar ilon yoki o'rgimchaklardan qo'rqmaydi? e) Qancha odamlar faqat ilonlardan qo'rqishadi?

1.1.36. Oltin baliqni qo'lga kiritish uchun omadli bo'lganlar orasida yangi kvartirani orzu qilganlar 18 kishi, qimmatbaho mashina - 14, yaxshi ish - 28, kvartira va avtomobil - 5, kvartira va ish - 10, mashina va ish - 8 ta, har uchala tilaklar 3 kishi. Oltin baliqni qancha odam ushladi? Ulardan qanchasi bitta tilakni amalga oshirdi?

1.1.37. Chang'i, xokkey va konkida uchish sektsiyalarida 38 talaba qatnashadi. Ma'lumki, chang'i sektsiyasida 21 talaba shug'ullanadi, shulardan 3 talaba konkida uchish bilan shug'ullangan, 6 talaba xokkey sektsiyasida va bitta talaba bir vaqtning o'zida barcha uch seksiyalar bilan shug'ullangan. Konkida uchish bo'yicha 13 talaba tahsil oldi, shundan 5 talaba bir vaqtning o'zida ikkita sektsiyada tahsil olishdi. Xokkey bo'limida nechta talaba qatnashdi?

1.1.38. O'qituvchi guruhdagi 40 talabadan qaysi biri A, B va S kitoblarini o'qishini aniqlashga qaror qildi: so'rov natijalari quyidagicha: A kitobi 25 talaba tomonidan o'qilgan, B kitobni - 22, shuningdek S kitobni ham - 22. 33ta talabalar tomonidan A yoki B kitob o'qilgan. A yoki C - 32, B yoki C - 31; har uchala kitobni 10 talaba o'qidi. Qancha talabalar faqat bitta kitob o'qiydi? Qancha talabalar ushbu uchta kitobdan birini o'qimadilar?

1.2. Binar munosabatlar.

A^g to'plamning ixtiyoriy *R* qism to'plami *A* to'plamda **binar munosabat** deyiladi. Agar *(x, y)* ∈ *R* bo'lsa, u holda *x* element *u* element bilan *R* binar munosabatda deyiladi va *xR y* kabi yoziladi.

Matematikadagi muhim binar munosabatlar uchun ayrim belgilar kiritilgan.

Misollar: I) *R* haqiqiy sonlar to'plamida *x* va y sonlarning tenglik munosabati. Uning belgisi *x* = y. Bu munosabat R^2 tekisliqsagi y = *x* to'g'ri chiziq nuqtalari bilan beriladi.

2) *R* haqiqiy sonlar to'plamida *x* va *y* sonlarning tengmaslik munosabati. Uning belgisi *x* ≠ y. Bu munosabat R^2 tekislikda y = *x* to'g'ri chiziqqa kirmagan barcha nuqtalardan iborat bo'lgan to'plam bilan beriladi.

3) *R* da y sonning *x* sondan katta ekanligi munosabati: belgisi *y* > *x* yoki *x* < *y*. Bu munosabat R^2 da y = *x t*o'g'ri chiziqdan yuqorida yotuvchi nuqtalar to'plami bilan beriladi;

4) *A* = *V* — to'plamlarning tenglik munosabati;

5) *A* ≠ *V* — to'ilamlarning tengmaslik munosabati;

6) *A* ⊆ *V* yoki *V* ⊇ *A* — qism to'plam munosabati;

7) *A*⊂ *V* yoki *V* ⊇ *A* — xos qism to'plam munosabati;

8) α || β— to'g'ri chiziqlarning parallellik munosabati;

9) a ⊥ β — to'g'ri chiziqlarning perpendikulyarlik munosabati;

10) *a* => β — bir tenglamalar tizimi ikkinchisiningnatijasi ekanligi;

11) *a* <=> β — ikkita tenglamalar tizimining teng kuchlilik munosabati.

Agar *A* to'plamda berilgan biror *R* munosabat shunday bo'lsaki, har qanday *a*∈ *A* uchun *aRa* o'rinli bo'lsa, u **refleksiv** munosabat deyiladi. Agar *aRb* munosabatdan *a*≠*b* munosabat kelib chiqsa, (ya'ni *aRa* munosabat hech qanday *a*∈ *A* element uchun bajarilmasa), bunday munosabat **antirefleksiv** deyiladi.

Agar *aRb* munosabatning bajarilishidan b*Ra* munosabatning ham bajarilishi kelib chiqsa, bunday munosabat *A* da **simmetriklik munosabati** deyiladi.

Agar *aRb* va b*Rs* munosabatlarning bajarilishidan *aRs* bajarilishi kelib chiqsa, bunday munosabat **tranzitivlik** deyiladi va *ko'pincha* $a \sim b$ *belgi ishlatiladi.*

Ekvivalentlikka misollar:

1) haqiqiy sonlarning tenglik munosabati;
2) to'plamlarning tenglik munosabati;
3) tenglamalar tizimlarining teng kuchlilik munosabati;
4) funksiyalarning tenglik munosabati.
5) Muhim misol. *A* to'plamda *N* o'zgartirishlar guruhi berilgan bo'lsin.

Bu *N* o'zgartirishlar guruhi yordamida *A* da ekvivalentlik tushunchasini kiritamiz.

Agar *A* to'plamning *a* va *b* elementlari uchun shunday $h \in H$ bieksiya mavjud bo'lsaki, $h(a) = b$ bo'lsa, bu elementlar *N* — zkvivalent deyiladi va $a \sim b$ ko'rinishda yoziladi.

Agar ixtiyoriy $a \in A$ ni olib, $h \in N$ sifatida e_A ni olsak (e_A — birlik aks ettirish o'zgartirishlar guruhining ta'rifidagi d2) shartga ko'ra H ga tegishli, $e_A(a) = a$,ya'ni har qanday $a \in A$ uchun $a \sim a$ (refleksivlik).

Endi $a \sim b$ bo'lsin. U holda shunday $h \in N$ mavjudki, $h(a) = b$. O'zgartirishlar guruhining ta'rifidagi d3) shartga ko'ra. $h^{-1} \in N$. U holda $h(a) = b$ tenglikka h^{-1} tatbiq qilsak, $h^{-1}(h(a)) = h^{-1}(b)$. Bundan $a = h^{1}(b)$, ya'ni $b \sim a$ (simmetriklik).

Agar $a \sim b$ va $b \sim s$ bo'lsa, shunday $h_1 \in N$ va $h_2 \in N$ bieksiyalar mavjudki, $h_1(a) = b$, $h_2(b) = s$. Bulardan $h_2(b) = h_2 (h_1(a) = s$, ya'ni $(h_2h_1 (a) = s$. O'zgartirishlar guruhining d1) shartiga ko'ra $h_2h_1 \in N$. Bundan va $(h_2h_1)(d) = s$ tenglikdan $a \sim c$ munosabatni olamiz (tranzitivlik).

Demak, $a \sim b$ $(N$ — ekvivalentlik) haqiqatan ham ekvivalentlik munosabati ekan.

Misollar. 1. $\{<2,4>, <5,6>, <7,6>, <8,8>\}\}$ tartiblangan juftliklar to'plami binar munosabatga misol bo'la oladi.

2.Agar ρ ayniyat munosabatini bildirsa, u vaqtda $<x,y>\in\rho$ degani $x\equiv y$ ni bildiradi.

3.Agar ρ onalik munosabatini bildirsa, u vaqtda <Xurshida, Iroda>$\in\rho$ simvol Xurshida Irodaning onasi ekanligini bildiradi.

Misol: $\{<2,4>, <3,3>, <6,7>\}$ ρ munosabat berilgan bo'lsin. U vaqtda $D_\rho=\{2,3,6\}$, $R_\rho=\{4,3,7\}$.

Biror C to'plam $<x,y>$ tartiblangan juftliklar to'plami bo'lsin. Agarda x biror X to'plamning elementi va y boshqa Y to'plamning elementi bo'lsa, u vaqtda C to'plam X va Y to'plamlarning to'g'ri (dekart) ko'paytmasidan tuzilgan to'plam deyiladi va $C=X\times Y=\{<x,y>/x\in X$ va $y\in Y\}$ shaklida belgilanadi.

Har bir ρ munosabat ayrim olingan $X\times Y$ to'g'ri ko'paytmaning qism to'plami bo'ladi va $X\supseteq D_\rho$, $Y\supseteq R_\rho$. Agar $\rho\subseteq X\times Y$ bo'lsa, u vaqtda ρ X dan Y ga bo'lgan munosabat deb aytiladi. Agar $\rho\subseteq X\times Y$ va $Z\supseteq X\cup Y$ bo'lsa, u vaqtda ρ dan Z ga bo'lgan munosabat deb aytiladi. Z dan Z ga bo'lgan munosabatni Z ichidagi munosabat deb aytiladi.

X qandaydir to'plam bo'lsin. U vaqtda X ichidagi $X\times X$ munosabatni X ichidagi universal munosabat deb aytiladi.

$\{<x,x>/x\in X\}$ munosabat X ichidagi ayniyat munosabati deb aytiladi va i_X yoki i simvoli bilan belgilanadi. Har qanday X to'plamining x va y elementlari uchun x i_X y ifoda $x=y$ bilan teng kuchlidir.

A to'plam va ρ munosabat berilgan bo'lsin. U vaqtda $\rho[A]=\{y/A$ ning ayrim x lari uchun $x\,\rho\,y\}$. Bu to'plamga A to'plam elementlarining ρ - obrazlari to'plami deb aytiladi.

Misollar. $y=2x+1$ to'g'ri chiziqni $\{<x,y>\in R\times R/\ y=2x+1\}$ va $y<x$ munosabatini $\{<x,y>\in R\times R/\ y<x\}$ shakllarda yozish mumkin.

Muammoli masala va topshiriqlar:

1.2.1. $A=\{1, 2, 3\}$ va $B=\{a, b\}$ berilgan bo'lsa, $A\times B$, $A\times A$, $B\times A$, $B\times B$, $A\times\varnothing$, 2^A, 2^B, $B\times 2^B$ ni toping.

1.2.2. $A=\varnothing$, $B=\{\varnothing\}$ и $C=\{\varnothing,\{\varnothing\}\}$. $A\times B$, $A\times C$, $B\times C$,$B\times B$, $C\times C$, 2^A, 2^B, 2^C, $B\times 2^B$, $B\times 2^C$,$C\times 2^B$.

1.2.3. Ixtiyoriy A, B, C, D to'plamlar uchun quyidagi tenglilarning qaysi o'rinli:

1) $A\times B=B\times A$;
2) $(A\cup B)\times C=(A\times C)\cup(B\times C)$;
3) $(A\cap B)\times(C\cap D)=(A\times C)\cap(B\times D)$;
4) $(A\cup B)\times(C\cup D)=(A\times C)\cup(B\times D)$;
5) $(A-B)\times C=(A\times C)-(B\times C)$?

1.2.4. {1, 2, 3, 4, 5} to'plamlar uchun munosabatning qaysi xossalari o'rinli bo'lishini aniqlang:

R_1: $aR_1b \leftrightarrow |a-b|=1$;
R_2: $aR_2b \leftrightarrow 0<a-b<3$;
R_3: $aR_3b \leftrightarrow a+b$ – juft sonlar;
R_4: $aR_4b \leftrightarrow a\geq b^2$;
R_5: $aR_5b \leftrightarrow EKUB\,(a, b)=1$.

1.2.5. Quyidagi tasdiqlarning qaysi biri to'g'riligini aniqlang:

1) to'plamdagi barcha munosabatlar yo simmetrik, yoki antisimmetrikdir;

2) hech bir munosabat bir vaqtda ham simmetrik, ham antisimmetrik bo'la olmaydi;

3) ixtiyoriy R munosabat uchun $R \cup R^{-1}$ vaи $R \cap R^{-1}$ munosabat simmetrik bo'ladi;

4) ixtiyoriy R munosabat uchun $R-(R \cap R^{-1})$ munosabat antisimmetrik bo'ladi;

5) agar R munosabatda xossalardan birini qanoatlantirsa, u holda R^{-1} munosabatda ham shu xossani qanoatlantiradi;

6) ixtiyoriy R munosabat uchun $R \circ R^{-1}$ munosabat simmetrik bo'ladi;

7) ixtiyoriy R munosabat uchun $R \circ R^{-1}$ munosabat refleksiv bo'ladi;

8) Agar R_1 va R_2 ikkala munosabatda xossalardan birini qanoatlantirsa, u holda $R_1 \circ R_2$ munosabat ham shu xossani qanoatlantiradi.

1.2.6. Quyidagi tasdiqlarning qaysi biri to'g'riligini aniqlang:

1) Agar R_1 va R_2 ekvivalentlik munosabati bo'lsa, unda $R_1 \circ R_2$ ekvivalentlik munosabati bo'ladi;

2) Agar R_1 va R_2 ekvivalentlik munosabati bo'lsa, unda $R_1 \cap R_2$ ekvivalentlik munosabati bo'ladi;

3) Agar R_1 va R_2 ekvivalentlik munosabati bo'lsa, unda $R_1 \cup R_2$ ekvivalentlik munosabati bo'ladi;

1.2.7. $\{a, b\}$ ikki elementli to'plamda barcha munosabatlarni toping va ular orasida

1) barcha refleksiv;
2) barcha simmetrik;
3) barcha antisimmetrik;
4) barcha tranzitiv;
5) barcha ekvivalent;
6) barcha tartib munosabatlarni ko'sating.

1.2.8. $\{0,1,...,9\}$ to'plamda berilgan quyidagi munosabatlardan qaysi ekvivalentlik munosabati bo'lishini aniqlang;

$R_1: \ aR_1b \ \leftrightarrow \ a \equiv b (\text{mod } 3)$;

$R_2: \ aR_2b \ \leftrightarrow \ a^2 \equiv b^2 (\text{mod}10)$;

$R_3: \ aR_3b \ \leftrightarrow \ ab \equiv 0 \ (\text{mod } 2)$;

$R_4: \ aR_4b \ \leftrightarrow \ |2^a - 2^b| < 16$;

$R_5: \ aR_5b \ \leftrightarrow \ |2^a - 2^b| \leq 16$;

$R_6: \ aR_6b \ \leftrightarrow EKUB(a,b) = 1.$

1.2.9. Z - butun sonlar to'plamida $R : xR\,y \leftrightarrow x = y^2$ munosabat aniqlangan. $R \circ R^{-1}$, $R^{-1} \circ R$ munosabatlardan birortasi ekvivalentlik munosabati bo'ladimi?

1.2.10. Quyidagi munobatlardan qaysilari Z^2 da ekvivalentlik munosabati bo'ladi?

$R_1 : (x_1, y_1) R_1 (x_2, y_2) \leftrightarrow x_1 = x_2$;

$R_2 : (x_1, y_1) R_2 (x_2, y_2) \leftrightarrow x_1 = x_2$ yoki $y_1 = y_2$;

$R_3 : (x_1, y_1) R_3 (x_2, y_2) \leftrightarrow x_1 + y_1 = x_2 + y_2$;

$R_4 : (x_1, y_1) R_4 (x_2, y_2) \leftrightarrow x_1 + y_2 = y_1 + x_2$;

$R_5 : (x_1, y_1) R_5 (x_2, y_2) \leftrightarrow x_1 < x_2$ yoki $x_1 = x_2 , y_1 \leq y_2$?

1.2.11. n (n =1, 2, 3, 4) ta elementli to'plamda nechta turli ekvivalentlik munosabatlarini aniqlash mumkin?

1.2.12. U universal to'plaam berilgan. 2^U da quyidagi munosabatlardan qaysilari ekvivalentlik yoki tartib munosabati bo'ladi:

1) $AR_1B \ \leftrightarrow \ A \cap B = \varnothing$;

2) $AR_2B \leftrightarrow A-B=\varnothing$;

3) $AR_3B \leftrightarrow A-B=B-A$;

4) $AR_4B \leftrightarrow |A|=|B|$?

1.2.13. Uchta elementli to'plamda nechta turli tartib munosabatlarini aniqlash mumkin? Ular orasida chiziqlilari nechta?

1.2.14. $y=2x+1$ to'g'ri chiziqni $\{<x,y>\in R\times R/\ y=2x+1\}$ va $y<x$ munosabatini $\{<x,y>\in R\times R/\ y<x\}$ shakllarda yozish mumkinligini tushuntiring.

1.2.15. $\{<2,4>,\ <5,6>,\ <7,6>,\ <8,8>\}$ tartilangan juftliklar to'plami binar munosabat bo'la oladimi?

1.2.16. A-tekislikdagi barcha to‘g‘ri chiziqlar to‘plami bo‘lsin. Ixtiyoriy a,b tug‘ri chiziqlar uchun (atb)=(a\\b) bo‘lsa, A dagi: Parallelik munosabati: refleksiv bo‘ladimi?

1.2.17. A-tekislikdagi barcha to‘g‘ri chiziqlar to‘plami bo‘lsin. Ixtiyoriy a,b tug‘ri chiziqlar uchun (atb)=(a\\b) bo‘lsa, A dagi: Parallelik munosabati: simmetrik bo‘ladimi?

1.2.18. A-tekislikdagi barcha to‘g‘ri chiziqlar to‘plami bo‘lsin. Ixtiyoriy a,b tug‘ri chiziqlar uchun (atb)=(a\\b) bo‘lsa, A dagi: Parallelik munosabati: tranzitiv bo‘ladimi?

1.2.19. A-tekislikdagi barcha to‘g‘ri chiziqlar to‘plami bo‘lsin. Ixtiyoriy a,b tug‘ri chiziqlar uchun $a\tau b=a\perp b$ bo‘lsa, τ perpendikulyarlik munosabati: antirefleksiv bo‘ladimi?

1.2.20. A-tekislikdagi barcha to‘g‘ri chiziqlar to‘plami bo‘lsin. Ixtiyoriy a,b tug‘ri chiziqlar uchun $a\tau b=a\perp b$ bo‘lsa, τ perpendikulyarlik munosabati: simmetrik bo‘ladimi?

1.2.21. M_3 to‘plamda $\tau=\{<1,2>, <2;2>, <1;3>\}$ va $\sigma=\{<1;1>, <2;2>, <3;1>\}$ binar munosabatlar aniqlangan bo‘lsin, u xolda $\tau\cdot\sigma$ ni hisoblang?

1.2.22. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\tau = \{<1;1>, <2;2>\} \subset N^2$.

1.2.23. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\tau = \{<1;5>\} \subset N^2$.

1.2.24. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\tau = \{<1;2>, <2;1>, <1;1>, <2;2>, <3;5>, <5;3>, <3;3>, <5;5>\}$

1.2.25. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\tau = \{<1;3>, <3;1>, <4;5>, <5;4>\} \subset N^2$.

1.2.26. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in N)$, $a\tau b \Leftrightarrow b<2a$.

1.2.27. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in N)$, $a\tau b \Leftrightarrow a=b^2$.

1.2.28. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in N)$, $a\tau b \Leftrightarrow a<b$.

1.2.29. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in N)$, $a\tau b \Leftrightarrow a-b=12$.

1.2.30. N to'plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o'zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in N)$, $a\tau b \Leftrightarrow |a-b|=12$.

1.2.31. N to‘plamda aniqlangan quyidagi binar munosabatlar qanday xossaga ega ekanligini aniqlang, ularni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping: $\forall (a,b \in N)$, $a\tau b \Leftrightarrow (a-b):10$.

1.2.32. $M_n = \{\{1,2,\ldots,n\} \subset N\}$ to‘plamda bir vaqtda refleksiv va antirefleksif bo‘lmagan binar munosabatlar mavjudmi?

1.2.33. M_1, M_2, M_3 va $M_n = \{\{1,2,\ldots,n\} \subset N\}$ to‘plamlarning har birida nechtadan binar munosabat aniqlash mumkin?

1.2.34. M_{10} **(**$M_n = \{\{1,2,\ldots,n\} \subset N\}$**)**to‘plamda $\forall(a,b \in M10)$ $a\tau b \Leftrightarrow a-b=8$; aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlngini toping.

1.2.35. M_{10} **(**$M_n = \{\{1,2,\ldots,n\} \subset N\}$**)**to‘plamda $\forall(a,b \in M10)$ $a\tau b \Leftrightarrow b=a^2$ aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlngini toping.

1.2.36. M_{10} **(**$M_n = \{\{1,2,\ldots,n\} \subset N\}$**)**to‘plamda $\forall(a,b \in M10)$ $a\tau b \Leftrightarrow a-b-12$; aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlngini toping.

1.2.37. M_{10} **(**$M_n = \{\{1,2,\ldots,n\} \subset N\}$**)**to‘plamda $\forall(a,b \in M10)$ $a\tau b \Leftrightarrow b>a^2$ aniqlangan binar munosabatlarni aniqlanish va o‘zgarish sohalarini toping. Ularning har biri qanday xossalarga ega ekanlngini toping.

1.2.38. M_3 to‘plamda aniqlangan $\tau=\{<1;1>,<2;1>,<2;3>,<3;3>\}$ munosabatga teskari τ^{-1} munosabatlarni toping.

1.2.39. M_3 to‘plamda aniqlangan $\sigma=\{<1;1>,<2;1>,<1;2>,<2;2>\}$ munosabatga teskari σ^{-1} munosabatlarni toping.

1.2.40. M_3 to‘plamda aniqlangan $\rho=\{<1;2>,<1;3>,<2;3>\}$ munosabatga teskari ρ^{-1} munosabatlarni toping.

1.2.41. M_3 to‘plamda aniqlangan $\tau=\{<1;1>,<2;3>,<1;2>\}$ va $\sigma=\{<1;1>,<1;3>,<3;3>\}$ binar munosabatlarni ko‘paytmasini toping.

1.2.42. M_4 to‘plamda aniqlangan $\tau=\{<1;1>,<2;3>\}$, $\sigma=\{<1;2>,<2;3>,<3;4>\}$ binar munosabatlarni ko‘paytmasini $\tau\sigma$ toping.

1.2.43. M_4 to‘plamda aniqlangan $\tau=\{<1;1>,<2;3>\}$, $\sigma=\{<1;2>,<2;3>,<3;4>\}$ binar munosabatlarni ko‘paytmasini $\sigma\tau$ toping.

1.2.44. M_4 to‘plamda aniqlangan $\tau=\{<1;1>,<2;3>\}$ binar munosabat uchun τ^2 toping.

1.2.45. M_4 to‘plamda aniqlangan $\sigma=\{<1;2>,<2;3>,<3;4>\}$ binar munosabat uchun τ^2 toping.

2-BOB. MULOHAZALAR ALGEBRASI.

2.1. Mulohazalar va ular ustida amallar. Formula, qism formulalar. Chinlik jadvali.

O’zgaruvchilar soni n ta bo’lsa, u vaqtda $C_n^0+C_n^1+C_n^2+...+C_n^n=2^n$ ta qiymatlar satriga ega bo’lamiz.

1. **Inkor amali.** $\overline{x}$ mulohaza “x emas” deb o’qiladi. x mulohazaning inkori deb atalgan $\overline{x}$ mulohaza shu bilan xarakterlanadiki, x mulohaza “**ch**” qiymatni qabul qilganda, $\overline{x}$ mulohaza “**yo**” qiymatni qabul qiladi va aksincha.
2. **Kon’yunkstiya (mantiqiy ko’paytma) amali.** x va y o’zgaruvchi mulohazalar ustida bajariladigan kon’yunkstiya (lotincha conjunctio - bog’layman so’zidan) $x\wedge y$ yoki $x\,\&\,y$ ko’rinishda belgilanadi. “Va” bog’lovchisiga mos keluvchi mantiqiy amalga kon’yunkstiya amali deb aytamiz.

   $x\wedge y$ ko’rinishdagi mulohaza «x va y» deb o’qiladi.
3. **Diz’yunkstiya (mantiqiy yig’indi) amali.** Rad etmaydigan ma’noda ishlatiladigan “yoki” mantiqiy amal diz’yunkstiya (lotincha disjunctio - farq qilaman so’zidan) deyiladi. Ikkita x va y mulohazaning diz’yunkstiyasi “$x\vee y$” kabi yoziladi va “x yoki y” deb o’qiladi.
4. **implikastiya** (lotincha implicatio - zich bog’layman so’zidan). Implikastiya amalini $\rightarrow$ ko’rinishida belgilaymiz.“$x\rightarrow y$” mulohaza “agar x, u holda y” deb o’qiladi.
5. **Ekvivalentlik (tengkuchlilik) amali.** Ko’p murakkab mulohazalar

elementar mulohazalardan “zarur va kifoya”, “faqat va faqat”, “shunda va faqat shundagina, qachonki”, “.......bajarilishi etarli va zarurdir” kabi bog’lovchilari yordamida tuziladi. “$\leftrightarrow$“ kabi belgilanadi. $x \leftrightarrow y$ murakkab mulohaza “**x** ekvivalent **y**” deb o’qiladi.

6. **Sheffer amali (shtrixi).** “ | “ kabi belgilanadi. Murakkab mulohaza “$x|y$” “x Sheffer shtrixi y ” deb o’qiladi.

7. **Pirs strelkasi “$\downarrow$”**kabi belgilanadi. Murakkab mulohaza “$x \downarrow y$” “x Pirs strelkasi y ” deb o’qiladi.

x	y	$x \wedge y$	$x \vee y$	$x \to y$	$x \leftrightarrow y$	$x \mid y$	$x \downarrow y$
ch	ch	ch	ch	ch	ch	yo	yo
ch	yo	yo	ch	yo	yo	ch	yo
yo	ch	yo	ch	ch	yo	ch	yo
yo	yo	yo	yo	ch	ch	ch	ch

Jadvalni barcha mantiqiy amalining ta’rifi sifatida qabul qilamiz va u **chinlik jadvali** deyiladi.

Propozisional o’zgaruvchilar bu, konkret mulohaza qo’yib bo’ladigan o’zgaruvchilardir: $x_1, x_2, x_3, ..., x_n$, A,B,C,…,X,Y,Z. Odatda formula tushunchasi quyidagicha kiritiladi:

1) har qanday $x_1, x_2, x_3, ..., x_n$ mulohazalarning istalgan biri formuladir;

2) agar A va B larning har biri formula bo’lsa, u holda $(A \wedge B)$, $(A \vee B)$, $(A \to B)$, $(A \leftrightarrow B)$ va $\overline{A}$ lar ham formulalardir.

3) 1 va 2-bandlarda ko’rsatilgan ifodalardan tashqari boshqa hech qanday ifoda ***formula*** bo’la olmaydi.

Mulohazalarni inkor, diz’yunkstiya, kon’yunkstiya, implikastiya va ekvivalenstiya mantiqiy amallar vositasi bilan ma’lum tartibda birlashtirib hosil etilgan murakkab mulohazaga **formula** deb aytamiz.

Masalan: $([x_1 \vee (x_2 \wedge x_3)] \to x)$; $([x_1 \wedge (x_2 \to x_3)] \vee (x_4 \leftrightarrow x_5))$;

$((x \leftrightarrow y) \wedge (x \vee y))$; $((x \to y) \wedge (x \to z) \to (z \to x))$ murakkab mulohazalar formulalar bo'ladi. Formula tashqaridan qavsga olinadi va qavslar mulohazalar ustida mantiqiy amallarning qay tartibda bajarilishini ko'rsatadi.

Formulaning qism formulalari deganda, berilgan formulaning formula bo'la oladigan barcha qismlariga aytiladi.

Misol: $A = ((\overline{x} \to y) \wedge \overline{\kappa})$ formulaning chinlik jadvali quyidagicha tuziladi:

x	y	κ	$\overline{x}$	$\overline{x} \to y$	$\overline{\kappa}$	A
0	0	0	1	0	1	0
0	0	1	1	0	0	0
0	1	0	1	1	1	1
0	1	1	1	1	0	0
1	0	0	0	1	1	1
1	0	1	0	1	0	0
1	1	0	0	1	1	1
1	1	1	0	1	0	0

Muammoli masala va topshiriqlar:

2.1.1. Quyidagilarning qaysi biri mulohaza bo'ladi:

1) Toshkent – O'zbekiston Respublikasining poytaxti;

2) $\sqrt{5} + 4\sqrt{3 - 30}$;

3) Oy Mars planetasining yo'ldoshi;

4) $a > 0$;

5) 2+2=5

6) Matematika fakul'teti talabalariga shon sharaflar bo'lsin!

7) Qizil atirgul.

8) x+3=7.

9) Soat nechada?

10) Muntazam uchburchak deyiladi, agar tomonlari teng bo'lsa.

11) Atirgul – eng chiroyli gul.

12) Ixtiyoriy a va b uchun, a + b = b + a tenglik o'rinli bo'ladi.

13) 28 soni 7 ga qoldiqsiz bo'linadi.

2.1.2. Quyidagi mulohazalarning chin yoki yolg'on ekanligini aniqlang:

1) $2 \in \{x \mid 2x^3 - 3x^2 + 1 = 0, \quad x \in R\}$; 2) $\{1\} \in N$;

2.1.3. Quyidagi implikastiyalarning qaysi birlari chin bo'ladi:

1) agar $2 \times 2 = 4$ bo'lsa, u holda $2 < 3$;

2) agar $2 \times 2 = 4$ bo'lsa, u holda $2 > 3$;

2.1.4. Quyidagi mulohazalarning inkorini tuzung:

1) 33 soni 7 ga qoldiqsiz bo'linadi.

2) $255 \prec 258$.

3) ΔABC - to'g'ri burchakli uchburchak..

4) Stol – oq.

5) Barcha tub sonlar, toq son bo'ladi.

6) ABCD to'rtburchak rombdir.

2.1.5. Quyidagi simvollar ketma-ketligi formula bo'la oladimi:

1) (PQ);

2) $((P \leftrightarrow Q) \wedge R) \rightarrow (P \vee Q)$;

3) $((\neg P \rightarrow Q) \rightarrow (R \wedge (Q \wedge S)))$;

4) $((\neg P \rightarrow Q) \neg (R \leftrightarrow P))$;

5) $(P \rightarrow ((Q \vee R) \rightarrow \neg P))$;

6) $\neg((\neg P \wedge \neg Q) \rightarrow (P \vee (R \wedge \neg S)))$;

7) $((P \vee \neg Q) \rightarrow (\neg \mathrm{P} \wedge \neg \mathrm{R} \wedge (\mathrm{Q} \leftrightarrow \mathrm{R})))$;

8) $P \rightarrow Q \rightarrow R$;

9) $\neg\neg P \rightarrow P$;

10) $((P \to Q) \to ((Q \wedge S)$;

11) $(((P \leftrightarrow Q)R) \to (P \vee Q))$;

12) $((P \wedge (\neg Q \to R)) \vee ((\neg P \leftrightarrow \mathrm{R}) \vee Q))$.

Yechim: 11) $(((P \leftrightarrow Q)R) \to (P \vee Q))$ ketma-ketlik formula bo'la olmaydi. Haqiqatdan ham ta'rifning 1) bandidan P,Q,R propozisional o'zgaruvchilar formula, ta'rifning 2) bandidan $(P \leftrightarrow Q)$, $(P \vee Q)$ formula ammo, $((P \leftrightarrow Q)R)$ formula emas, chunki $(P \leftrightarrow Q)$ va R formulalar biror mantiqiy amal vositasida bog'lanmagan.

2.1.6. Quyida berilgan simvollar ketma-ketligida turli xil usullar bilan qavslarni joylashtirib, hosil bo'lgan barcha formulalarni yozing:

1) $P \to Q \wedge \neg R \vee S$;

2) $P \to \neg Q \vee R \to \neg \mathrm{P} \to \neg \mathrm{R}$;

3) $\neg P \wedge Q \to R$;

4) $P \vee \neg Q \to \neg R \wedge Q$;

5) $\neg P \vee R \wedge Q \vee R$;

6) $\neg P \vee R \vee P \to Q$;

7) $P \leftrightarrow Q \wedge \neg R \to S$;

8) $P \vee Q \wedge \neg R \wedge P \vee R$;

9) $\neg P \wedge Q \vee R \to Q$;

10) $\neg P \wedge Q \to \neg P \vee R$;

11) $\neg P \leftrightarrow \neg Q \vee R \wedge Q$.

Yechim: 11) Soddalik uchun tashqi qavslarni tashlab yuboramiz va quyidagilarga ega bo'lamiz:

$(\neg P \leftrightarrow \neg Q) \vee (R \wedge Q)$;

$(\neg P \leftrightarrow (\neg Q \vee R)) \wedge Q$;

$\neg(P \leftrightarrow (\neg Q \vee R)) \wedge Q$;

$(\neg P \leftrightarrow \neg(Q \vee R)) \wedge Q$;

$\neg(P \leftrightarrow \neg(Q \vee R)) \wedge Q$;

$\neg((P \leftrightarrow \neg Q) \vee R) \wedge Q$;

$\neg P \leftrightarrow \neg(Q \vee (R \wedge Q))$;

$\neg P \leftrightarrow (\neg Q \vee (R \wedge Q))$;

$\neg P \leftrightarrow \neg((Q \vee R) \wedge Q)$;

$\neg P \leftrightarrow ((\neg Q \vee R) \wedge Q)$;

$\neg(P \leftrightarrow (\neg Q \vee R) \wedge Q)$;

$\neg(P \leftrightarrow ((\neg Q \vee R) \wedge Q))$;

